

**OILA BUZILISHINING AYOLLAR RUHIYATIGA TA'SIRINING  
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.**

**SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE IMPACT  
OF FAMILY DISORDER ON WOMEN'S PSYCHE.**

**Turdikulova Gulchexra Mamaraxim qizi**

Guliston davlat universiteti,

Pedagogika va psixologiya kafedrası, Magistr

Email: [gulixmatova526@gmail.com](mailto:gulixmatova526@gmail.com)

**Annatsiya:** Oila- nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy ma'suliyati bilan bir-biriga bog'langan.

Ma'lumki, jamiyatning muhim bo'g'ini bo'lgan oilalar qanchalik tinch va totuv bo'lsa, shundagina davlat tinch va barqaror ravnaq topishi mumkin. Shu jihatdan, oila qo'rg'onining mustahkamligi va unda ma'naviy jihatlarning shakllanishi hamda amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Binobarin oila deb atalmish muqaddas makonda farzandlar kamolga yetadi, ulg'ayadi. Shunday ekan, jamiyatda yuzaga kelayotgan oilalar qanchalik mustahkam qurilmoqda, poydevori chi?

Bugungi kunda oilaviy ajrimlar ortib bormoqda .Ajralish muammosi hozirgi kunda jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Oilaviy ajralishlarning mavjudligi ham respublikamizda keng jamoatchilik e'tiborini o'ziga jalb etib, bu muammoning yechimini topish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rishga undaydi. Bu ajrimlar har ikkala tomon uchun ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ayol psixologiya alohida o'rganiladigan nozik mavzu hisoblanadi. Oilaviy ajrimni boshidan kechirgan ayolning ruhiyati, uning dunyoqarashi o'ziga xos, e'tibor qaratish lozim bo'lgan soha hisoblanadi. Oilaviy ajrimlar jamiyatimiz barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu maqolada ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalarning ijtimoiy-psixologik ahvoli, oila a'zolarning psixologik holatlari yoritilgan. Maqolada oilaviy buzilishlarning sabablari, uning oqibatlarini ham yoritilgan. Jahonda va O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar taxlil qilingan. Maqolada oila buzilishini oldini olishga psixologik tavsiyalar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, nikoh shartlari, ajralish, ajrim motivlari, ajrim turlari, ajrim sabablari, oilaviy ajrim oqibatlari.

**Annotation:** A family is a small group based on marriage or birth. Its members are connected by unity of livelihood, mutual support and moral responsibility.

It is known that the more peaceful and harmonious families, which are an important part of society, the more peaceful and stable the state can develop. In this regard, the strength of the family fortress and the formation and implementation of spiritual aspects in it are important. Therefore, children mature and grow up in the sacred space called family. So, how strong are the families that are being built in the society, what about the foundation?

Today, family divorces are increasing. The problem of divorce remains one of the most urgent problems of society today. The presence of family divorces in our republic attracts the attention of the general public and encourages them to take the necessary measures to find a solution to this problem. These rulings have serious implications for both parties. Female psychology is a sensitive topic that is studied separately. The psyche of a woman who has experienced a family breakup, her worldview is a special area that should be paid attention to. Family disputes have a serious impact on the stability of our society.

In this article, the socio-psychological condition of families on the verge of divorce, and the psychological conditions of family members are covered. The article describes the causes of family disorders and their consequences. Research conducted in the world and in Uzbekistan was analyzed. The article provides psychological recommendations to prevent family breakdown.

**Key words:** family, conditions of marriage, divorce, reasons for divorce, types of divorce, causes of divorce, consequences of family divorce.

**Kirish:**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning tub negizi va mohiyati oilaga, uning sub'ektlari tarbiyasi va ta'siriga borib taqaladi. Chunki davlatimizda, birinchidan, oila qadriyat darajasiga ko'tarilgan tushuncha, ikkinchidan, davlat va jamiyatning asosiy negizi, uchunchidan islohotlar samarasi ro'yobga chiqaruvchi omillar avvalo oilada vujudga keladi va shakllanadi. Har bir oilaning o'ziga xos va mos muammolari mavjud bo'lib bu muammolarni oiladagi shirin tashvishlar deb ataymiz. Mana shu shirin tashvishlarni g'am g'ussali tashvishlarga

aylantirishimiz biz va shu xonadon a'zolarining o'ziga bog'liq bo'lgan muammolaridir.

Ma'lumki, oilaviy ajrim sabablari har bir mamlakatning geografik joylashuvi, madaniyati, urf-odati, dini, axloqi hamda aholining bilim va qashshoqlik darajasi, shuningdek, turli iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, ichki va tashqi stress kabi omillar ta'sir qiladi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodlar:**

K.Trent va S.Soutx kabi olimlar 1989-yilda alohida omillarning ajrashishlarga ta'sirini chuqur tahlil qilishdi, buning natijasida dunyo bo'yicha ajrashishlar darajasidagi tafovut sabablari o'rganildi. Ushbu tadqiqot jarayonida 66 ta mamlakatdan tarkib topgan tanlanmadan foydalanib, ayollarning mehnat bozorida ishtirok etishi, nikoh yoshi, diniy qarashlari, er-xotin o'rtasida ajrashish qarorida jinslar nisbatining ahamiyatlilik darajasi aniqlandi.

Yosh, davr va kogorta. 1980-yillarda olimlar oilaviy ajrimlarning vaqt (yosh davrlari) bilan bog'liq jihatlariga e'tibor qaratishgan. Deyarli barcha tadqiqotlarda oila qurishdagi yosh oilaviy ajrimlarga kuchli ta'sir qilishi, turli yosh davrlariga tegishli insonlarda ham nikohga nisbatan umumiy qarashlar shakllanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, olimlar insonlarning ajrashish vaqtidagi yoshini ham tahlil qilish muhimligini ta'kidlashgan, bunday yondashuv katta yoshdagi insonlarning nikohi yoshlarnikiga nisbatan mustahkamroq bo'lishi bilan izohlanadi.

Farzandlar. Farzand ko'rish oila qurishda ko'zda tutilgan asosiy maqsadlardan biridir. Dastlab, olimlar oilada farzand borligi, ayniqsa, ularning kichik yoshda bo'lishi ajrashish ehtimolini kamaytiradi, degan fikrni ilgari surgan. Keyinroq aniqlanishicha, ikkinchi va undan keyingi farzandlar Italiya va Ispaniyada oilani mustahkamlasa, Daniyada ajrashish xavfini oshirgan. Demak, farzandlarning oila mustahkamligiga ta'siri jamiyatda shakllangan ma'naviy va madaniy qadriyatlarga qarab o'zgarishi mumkin.

Bandlik va daromad. Bu mavzudagi dastlabki tadqiqotlar nikohdagilarning biri daromad keltiruvchi ish bilan band bo'lib, ikkinchisi ro'zg'or bilan shug'ullanganida ajrashish xavfi minimal darajaga tushishini aniqlashgan. Ayollarning pul resurslari ko'payishi natijasida ajrashish xavfi ortishi "erkinlik samarasi" deb yuritiladi. Rafiqaning pul resurslari evaziga oilaning mustahkamlanishi esa "daromad samarasi" deyiladi. Ko'pchilik olimlar «daromad samarasi»dan «erkinlik samarasi» yuqori bo'lib, ijobiy taraflarining kamayishiga olib keladi, deb hisoblashgan. Biroq

zamonaviy tendensiyalar ko'p mamlakatlarda nikohdagilarning ikkalasi ham band bo'lishi oilaviy daromadni ko'paytirishi va nikoh barqarorligini oshirishini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, erkak kishining maoshi yuqori bo'lishi ajrashish ehtimolini kamaytirishi, ayol kishining maoshi yuqori bo'lishi esa bu havfni oshirishiga dalillar keltirilgan. Aslida, ayolkishining bandligi va daromad darajasi nikoh sifatini pasaytirmaydi, faqatgina nomunosib, muammoli nikohdan chiqib ketish yo'lidagi to'siqlarni kamaytiradi. Ushbu fikrni empirik tekshirish maqsadida olimlar tadqiqotlarida nikoh sifati yoki baxt o'lchovlari tushunchalarini kiritishgan. Daromaddagi keskin ko'tarilish yoki kamayish, krizis davri kabi o'zgarishlar ham ajrashish xavfini orttiradi. Turmush o'rtoqlarning diniy qarashlari turlicha bo'lishi ham oila mustahkamligiga salbiy ta'sir qiladi.

Migratsiya. Nikoh barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotgan jarayonlardan yana biri migratsiyadir. Oila notanish sharoitlarda qo'shimcha sinovlarga uchraydi va yot ta'sirlarga bardoshi kamayishi mumkin. Aniqlanishicha, daromad topish uchun ba'zan oila boshlig'i, ba'zan turmush o'rtog'ining yangi ishga o'tishi nikohni xavf ostida qoldirar ekan. Shu o'rinda, tarixdan bir misol keltirib o'tsak: Umar ibn Xattob (r.a.) xalifalik davrlarida, kechasi birovga bildirmasdan, shaharni aylanib, odamlarning holidan xabar olib yurar ekanlar. Kunlardan bir kuni bir hovlida ayol kishining hijron haqida bayt aytayotganini eshitib qoladilar. Surishtirsalar, u ayolning eri harbiy istehkomga ketgan ekan. Hazrati Umar odam yuborib, qizlari Hafsa onamizdan: "Ayol kishi ersiz qancha sabr qila oladi?", – deb so'ratibdilar. U kishi: "To'rt oy", – deb javob beribdilar. Shundan keyin hazrati Umar askarlikda hech kimni to'rt oydan ko'p ushlab turmaslikka farmon bergan ekanlar. Hozirgi paytda ayrim kishilarning ishlab pul topish maqsadida, chet davlatlarda, oilasini tashlab, oylab, hattoki yillab yurishlari oilalarning buzilishiga sabab bo'lmoqda.

Biologik va sog'liq bilan bog'liq omillar. Salomatlik va nikohdan ajrashishga oid tadqiqotlarning aksariyati er-xotin va bolalar sog'ligi uchun ajrashish qanday salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi masalalariga bag'ishlangan. Shu bilan birgalikda, salomatlikning o'zi ajrashishga sabab bo'lishi to'g'risida ham ilmiy ishlar mavjud. Masalan, bir qator olimlar spirtli ichimliklar va noqonuniy psixotrop dori vositalariga mukkasidan ketish, oilada psixik kasallikka chalingan yoki nogiron farzandning dunyoga kelishi oqibatida ajrashish xatarini oshirishini aniqlashgan. Masalan, Rossiyada alkogolizm ajrashishlar darajasining ortishiga, tug'ilish kamayishi va o'lim darajasi oshishiga sabab bo'lmoqda. Kundalik hayotning bir-xilligi. O'zaro munosabatlarning boshida barcha narsa g'ayrioddiy, ehtirosli va qizg'in his-tuyg'ularga boy bo'lib tuyuladi. Ular bir-biri bilan go'yoki birinchi marta

tanishayotganga o'xshaydi. Ularga hech kim zarar yetkaza olmaydi, chunki ular haligacha bir-biri bilan muloqot qilishdan zavqlanadi. Keyinchalik tashvish va muammolar paydo bo'la boshlaydi. Bunga, asosan, bir xil hayot tarzi va ish tartibi sabab bo'ladi. Uzoq davom etadigan bir xillik inqirozning yuzaga kelishiga dastlabki sabab bo'ladi. Kimlar uchun bu vaziyat xursandchilik, kimlar uchun esa yoqimsiz. Agar oilada er-xotinning hayoti xilma-xil va kutilmagan kichik voqealardan iborat bo'lmasa, ular bir-biridan zerikadi. Keyin esa do'stlar davrasi, uydan tashqari va boshqa muhitdan qiziqarli narsalarni qidirishni boshlaydi. Tushunmovchilik va xiyonatlar paydo bo'ladi. Bu hodisalardan, asosan, ayollar azob chekadi, chunki erkaklar o'z harakatlarini bir muncha erkin amalga oshiradi. Ayol kishining farzandlari oldidagi mas'uliyati bunga yo'l qo'ymaydi.

**Moddiy qiyinchiliklar.** Hamma oila ham moliyaviy muammolarni hamjihatlik bilan yengishga tayyor bo'lmaydi. Agar ayol oilada pulni to'g'ri va maqsadli sarflashga o'rganmagan bo'lsa, qanday tejashni bilmasa, eri tomonidan isrof qilgan mablag' uchun tanbeh eshitadi. Ortiqcha xarajatlar oila iqtisodiga zarar yetkazadi. Bunday hollarda er-xotin bir-biridan qoniqish hosil qilmaydi, oilaviy inqiroz boshlanadi. Bugungi kunda yosh oilalar tomonidan ipoteka krediti olishi oddiy holga aylandi. Bu oilaviy daromadning katta qismini olishi bilan birga, uzoq muddat to'lashga majbur qiladi. Ayol kishi har doim chiroyli ko'rinishga, yangi narsalar, zargarlik buyumlarini sotib olishga o'ch bo'ladi. Pul esa kredit sabab yetishmaydi. Ta'na-dashnomlar boshlanadi, nizo va janjallar paydo bo'ladi. Ayol eridan ko'proq pul topishni talab qiladi.

**Hissiyotlar sovishi.** Oilaviy munosabatlarning rivojlanishida jinsiy munosabatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Jinsiy aloqa tobora er-xotinlik burchiga aylanadi. Ayol kishi ko'pincha uy yumushlari va boshqa turli masalalar bilan band bo'lib, erining ehtiyojlariga e'tibor bera olmay qoladi. Ba'zida ayollar o'ziga qaramay qo'yadi. Erga bu holat yoqmaydi va "boshqa ayolni" qidirishga tushadi. Oilaviy munosabatlardagi inqirozlardan yana biri shundan boshlanadi.

Respublikamiz bo'ylab oilaviy ajrimlarning oldini olish bo'yicha juda ko'plab chora-tadbirlar ko'rilmogda. Shu jumladan, bizning Sirdaryo viloyatimizda ham oilaviy ajrimlarni kamaytirishga qaratilgan ko'plab metodika va so'rovnoma ishlab chiqilmogda. Men ham shu masala yuzasidan yoshlarimizning fikrlarini bilmoqchi bo'ldim va oila qurishdagi nikoh yoshi masalasiga doir so'rovnoma ishlab chiqdim. Bu so'rovnomada Oila Kodeksidagi nikoh yoshini o'zgartirish va nikoh yoshini o'zgarishi kerakmi, oilaviy ajrimlarni kamayishiga yordam bera oladimi yo'qmi? Shu savollar asosida viloyatimizning 16-17-18 yoshida yigit va qizlarimizga yuzlandim.


## Natijalar.

1-jadval

Savollar																												
Sizningcha nikoh yoshi muammasi bo' yilda O'ila Kodaksiga barchilgan eta																												
O'ila qurilayotganidagi nikoh yoshidan deb hisoblaymizmi?																												
17-18 yoshdagi yigit va qizlarning o'z o'zlariga pastrologik jihatdan tayyor deb hisoblaymizmi?																												
Sizningcha nikoh yoshini o'zgartirish ko'plab oilalarni ajralishini oldini oladimi																												
Qizlarning izchun eng kichik nikoh yoshi 20-21 yosh to'g'ri deb hisoblaymizmi?																												
Sizningcha nikoh yoshini oshirish o'ila qurish jarayoniga jorjy ta sir qancha katta bo'lsa ajralishlar shuncha kamayadi deb hisoblaymizmi?																												
Yigit va qizlar o'ily ana 'umotli yoki qo' lida biron kasb-insoni bo' lishi uchun ularga Yigilarning izchun eng kichik nikoh yoshini 21-22 yosh to'g'ri deb hisoblaymizmi?																												
17-18 yoshdagi yigit va qizlarning ota-ona bo' lishiga tayyor deb hisoblaymizmi?																												
Familiya va ismingiz	Yosh	Jins	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26
Gulchayra	17	Ayol	3	3	1	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3
Dalila	18	Ayol	2	3	1	2	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3
Gulnara	17	Ayol	1	1	2	1	3	2	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3
ISI	16	Erkak	3	3	1	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3
	17	Ayol	3	3	1	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3
	2	17	Ayol	3	3	1	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3
	3	16	Ayol	3	1	1	2	2	3	1	3	1	3	1	3	1	3	1	3	1	3	1	3	1	3	1	3	1
	4	17	Ayol	3	3	1	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3
	5	18	Ayol	1	3	1	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3
	6	17	Ayol	2	1	1	2	3	2	2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3
Muborak	16	Ayol	2	3	1	2	2	2	2	3	1	3	1	3	1	3	1	3	1	3	1	3	1	3	1	3	1	3
Ru'zgul	18	Ayol	3	3	1	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3
	7	16	Ayol	1	3	1	3	3	1	3	3	1	3	3	1	3	3	1	3	3	1	3	3	1	3	3	1	3
Sokina	16	Ayol	2	3	1	2	3	2	1	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3
	8	18	Ayol	3	3	1	2	3	3	3	2	3	1	3	1	3	1	3	1	3	1	3	1	3	1	3	1	3
	9	17	Ayol	1	1	1	2	3	2	1	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3
	10	16	Erkak	2	3	1	3	1	2	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3
	11	17	Ayol	3	3	1	3	3	3	3	2	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3
	12	16	Erkak	3	3	1	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3
	13	16	Ayol	2	2	2	1	3	3	1	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3
	14	17	Ayol	3	2	1	2	2	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3


Bu so'rovnomada 16-17-18 yoshdagi yigit va qizlarimiz o'zlarining javoblarini berib o'tishdi. Natijaga ko'ra, ishtirokchilarning katta qismi befarqlik bildirmadi.

2-jadval



Bu so'rovnomamizda 3ta erkak va 17ta ayol qatnashdi va o'z fikrlari berishdi. Demak oila yoshi masala yuzasidan ayollar faol fikrlarini bildirishdi.

3-jadval



Bu so'rovnomamizda 20ta ishtirokchi qatnashdi. Olingan so'rovnomamiz natijasi so'rovnomamiz ishtirokchilarining katta qismi o'rtacha qiziqish bildirishgan. Bu shuni tasdiqlaydiki, yoshlarimizning katta qismi nikoh yoshi masalasiga befarq emas va o'z fikrlariga ega.

### **Xulosa:**

Xulosa qilib aytganda, o'zbek oilalarida ajralishlar miqdori boshqa millatlar, masalan rus oilalarinikiga qaraganda ikki marta kam. Lekin har bir ajralishgan oilaga to'g'ri keladigan «tirik yetim» bolalar soni o'zbek oilalarida 2-2,5 martaga ko'p. Shu bilan birga, «ajralish madaniyati»ning quyi saviyada ekanligi va o'ziga xos milliy xususiyatlari bilan ifodalanishi o'zbek oilalarida ko'proq salbiy oqibatlarga olib keladi. Shunga ko'ra ajralishlarning salbiy asoratlari o'zbek oilalarida boshqa millatlar oilalaridagiga nisbatan kuchliroq ifodalanadi.

Shuning uchun ham hozirgi vaqtda ajralish muammosini ilmiy asosda o'rganish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Bu o'rinda ajralish omillari va sabablarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Chunki aksariyat hollarda mahallalarda nikohni bekor qilish borasida o'tkaziladigan sud ishlarida ajralmoqchi bo'lgan oila buzilishining asl sababini aniqlab, nikohni bekor qilish ishlarida oddiy xatolarga yo'l qo'yilmoqda. Bu xatolarga yo'l qo'ymaslik yetarlicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirzayev Jamshid Turdalievich. "Social and psychological opportunities of information and psychological security in adolescents" International Conference on Developments in Education. Hosted from Bursa, Turkey. <https://econferencezone.org> July15th 2022 45-48 p

<https://econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1279>

2. Мирзаев, Д., & Наргулова, А. (2022). «Лечение интернет-зависимости. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы» Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы 1(1), 498–500. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5217>

3. Мирзоев, Д. (2022). “Internet qaramligini shakllanishning sabablari, mexanizmlari va diagnostikasi.” Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), № 1(2022) 500–503. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5218>.

4. Jamshid Turdaliyevich Mirzayev. Yoshlar ijtimoiy hulq-atvoriga internet muloqoti taʼsirining psixologik jihatlari. Tashkent Medical Academy Volume 4 | TMA Conference | 2023 Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions. Volume 4 | TMA Conference | 2023. May 6. 812-816 p. <https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlar-ijtimoiy-hulqatvoriga-internet-muloqoti-ta-sirining-psixologik-jihatlari/viewer>

5. Mirzayev Jamshid Turdaliyevich. “Psychological aspects of influence of the internet - communication on the social behavior of the youth” / INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS. International scientific-online conference. 2023. Part 18. JUNE 3rd. 1295-1300 p. <https://interonconf.org/index.php/neth/article/view/5386>

6. Mirzayev Djamshid Turdaliyevich/ PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET-COMMUNICATION IN SOCIAL SOCIETY OF YOUTH. The results of the study of Internet addiction on the method of Kimberly-Yang. NEUROQUANTOLOGY | October 2022 | VOLUME 20 | ISSUE 12 | PAGE 3409-3416| DOI: 10.14704/NQ.2022.20.12.NQ77350 <https://www.proquest.com/openview/c0c46eae8a7bf0e04fd82a955955a4dd/1?pqorigsite=gscholar&cbl=2035897>

7. Mirzayev Djamshid Turdaliyevich / Psychological aspects of the influence of internet communication on the social behavior of young / PEOPLE SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 3 ISSUE 4 APRIL 2024 ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ B volume 3 issue 4 – 359p <https://doi.org/10.5281/zenodo.11032109>

8. Mirzaev Jamshid Turdaliyevich. Psychological aspects of the influence of internet communication on the social behavior of young people. Science and innovation

international scientific journal. VOLUME 3 ISSUE 4 APRIL 2024 ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ. 174-177 p <https://doi.org/10.5281/zenodo.11032109>

9. G.M.Turdikulova “ Using digital technologies in the continuing education system” / Proceedings of the international scientific-practical conference on “ actual problems of digital and innovative technologies in the continuing education system”/2024 103-105. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14257504>

10. Turdikulova Gulchexra Mamaraxim qizi “ Iqtidorli o’quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash usullari”/ Pedagoglarning ehtiyojlarga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi:ilg’or tajribalar va rivojlanish istiqbollari xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya/2024 7-8 noyabr 539-542.

11.Turdikulova Gulchexra Mamaraxim qizi “Oila buzilishining ayollar ruhiyatiga ta’sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari”/ Pedagoglarning ehtiyojlarga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi:ilg’or tajribalar va rivojlanish istiqbollari xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya/2024 7-8 noyabr 349-353

12. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14257504> Z.Sh.Kuchkarbekova Gulistan Satate University Department of Pedagogy and Psychology